O‘SMIR YOSHDAGI O‘QUVCHILARNI IJTIMOIYLASHTIRISH JARAYONIDA AXBOROTLAR BILAN ISHLASH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Qo‘ziyev Ravshanbek Bakhtiyarovich
Qori Niyoziy nomidagi TPMI mustaqil izlanuvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23509791

Annotatsiya. *Maqolada o‘quvchilarning ma’naviy madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari va axborot vositalari bilan o‘zaro munosabatlarining asosiy muammolari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o‘quvchi-yoshlarning ma’naviy madaniyatini shakllantirishda keng imkoniyatlari aytib o‘tilgan.*
Kalit so‘zlar. *Ma’naviy madaniyat, axborotlar bilan ishlash madaniyati, axborot havfsizligi, informatsion-kommunikativ kompleks, internet tarmog‘i, o‘quvchi-yoshlarimizning ma’naviy madaniyatini shakllantirish.*
Аннотация. *В статье рассматриваются возможности формирования духовной культуры учащихся и основные проблемы их взаимодействия со средствами массовой информации. Также отмечены широкие возможности современных информационно-коммуникационных технологий в формировании духовной культуры учащейся молодежи.*
Ключевые слова. *Формирование духовной культуры, культуры работы с информацией, информационной безопасности, информационно-коммуникационного комплекса, сети Интернет, духовной культуры учащейся молодежи.*
Abstract. *The article discusses the possibilities of forming the spiritual culture of students and the main problems of their interaction with the media. It is also noted that modern information and communication technologies have broad opportunities in the formation of the spiritual culture of students.*
Key words. *Formation of spiritual culture, culture of working with information, information security, information and communication complex, the Internet, spiritual culture of our student youth.*

Yoshlar O‘zbekiston kelajagi, uning tarixi va madaniyatini yaratuvchi qudratli kuchdir. Shu bois yoshlarimiz ongiga odob-axloq, etika-estetika, milliy madaniyat va milliy qadriyat tushunchalarini singdirish muhim vazifalar sirasiga kiradi. Bu vazifani o‘quvchining ongida salbiy fikrlar va begona tushunchalar uyg‘onmasdan avval, o‘z vaqtida bajarish kerak. Chunki u ham ijobiy, ham salbiy xarakterdagi manbalar bilan qurshab olingan zamonaviy davrda yashaydi va rivojlanadi. Ularga ta’sir qiladigan birlamchi vosita, bu shubhasiz, axborot kommunikatsiya vositalaridir.

Axborotlashuv sharoitida axborot havfsizligini ta’minllashdagi muhim omil – inson omilidir. Chunki bugun “axborot” tushunchasi inson taafakkuriga turli ko‘rinishda ta’sir etib, uning hayoti va taqdirini muayyan bir tomonga – salbiy yoki ijobiy tarafga burib oladigan kuchli vositaga aylandi. Bu esa, o‘z navbatida, har bir shaxsdan kuchli sezgirlikni talab etmoqda. Sababi yoshlar katta avlodga nisbatan zamonaviy dunyo sivilizatsiyasi imkoniyatlaridan jumladan, zamonaviy ommaviy axborot vositalaridan ko‘proq baxramand bo‘lishmoqda. Ammo shuni ham e’tirof

etish zarurki, bunday sharoitda yoshlar ongini faqat o‘rab – chirmab, uni o‘qima, buni ko‘rma deb bir tomonlama tarbiya berib, ularning atrofini temir devor bilan o‘rab quya olmaymiz. Chunki bu zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad – muddaomizga ham to‘g‘ri kelmaydi. Sababi biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yganmiz.

Zero, mamlakatimizda ochiq demokratik jamiyat shakillanayotgan ekan bu yo‘nalishda o‘ziga xos qiyinchiliklarga duch kelishimizni anglashimiz darkor. Taniqli davlat arbobi Maxatma Gandi ta’kidlaganidek –“Yaxshi havo kirgizish niyatida xonaning derazasi ochiladi, lekin afsuski yaxshi havo bilan birga chang – to‘zon ham kirishi mumkin...”. Bu esa, o‘ta xushyorlikni talab qiladi.

Shuning uchun ham kishilarda ayniqsa, o‘sib kelayotgan yoshlarda axborot olish madaniyatini shakillantirish asosiy vazifalardan biri xisoblanadi. Shunday ekan, axborot makonini globallashuvi sharoitida mediata’limining o‘rni nihoyatda muhim bo‘lib, ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etadi.

Aytish o‘rinliki, bugungi kunda ommaviy axborot vositalari o‘quvchining dunyoqarashini shakllantirishda muhim omil bo‘lmoqda.

Zamonaviy axborot manbalari orqali o‘quvchilar saviyasini kengaytirish, ularning aql-zakovotini oshirish – shak-shubhasiz XXI asrning afzalligi sanaladi. Ammo butun olamga ommaviy axborot vositalari, xususan, internet orqali shaxs ma’naviyatini vayron qiluvchi turli targ‘ibot vositalari juda tez tarqalmoqda. Natijada yoshlar o‘rtasida axloqsizlik tamoyillari kuchayib, yosh avlodning psixologik sog‘ligiga xavf tug‘dirmoqda.

Hozirgi yoshlar ulkan axborot erkinligiga ega, shuningdek, ularda axborot hujumi juda yuqori. O‘quvchilarning axborot vositalari bilan o‘zaro munosabatlarining asosiy muammolari: axborot noaniqligi, axborotning orta boshlashi, axborot xavfsizligining mavjud emasligidir. Shuning uchun yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish har qachongidan ham jiddiy va dolzarb bo‘lib turibdi.

Axborot madaniyati shaxs va axborotning o‘zaro munosabatlarining murakkab jarayonini xarakterlaydi. Ushbu tushunchalar ko‘lami tarkibida bir qancha komponentlar ajratiladi: axborot qidiruvini olib borish, o‘quvchilar va o‘smirlarning dars jarayoni, bo‘sh vaqti yoki boshqa faoliyatida paydo bo‘ladigan, xilma-xil masalalarni hal qilish maqsadida ularning ijodiy foydalanishlarigacha topilgan axborot manbalarini tahlil qilish va tanqidiy baholashdir.

Axborot savodxonligi, axborot xavfsizligi va axborot dunyoqarashi axborot madaniyatining asosi hisoblanadi. Axborot xavfsizligi nafaqat qonun chiqaruvchi aktlarga, balki o‘quvchilar undan olingan axborotlarni qanchalik to‘g‘ri qabul qila olishiga bog‘liq. Shuningdek, ular axborotlarni tahlil qila oladimi, tanqidiy fikrlashga egami, kabi savollarning javobiga ham bog‘liq. Yoshlar axborotlarning

haqqoniyligini baholay oladimi, ular o‘zlaridagi bilim bilan axborotni o‘zaro qiyoslay oladimi?

Ushbu muammolarni hal qilish vositalaridan biri – turli axborot resurslaridan foydalanish jarayonida o‘sib kelayotgan yosh avlodga to‘g‘ri yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya berishdir. Boshlang‘ich qoidalarni tanlashga o‘rgatish va ijobiy axborotlardan foydalanishdir.

O‘quvchilarga keng doiradagi manbalardan foydalanishga yo‘naltirish natijasida ularni faktlarni fikrlardan farqlashga, himoyalanishga o‘rgatish mumkin. So‘nggi paytlarda internet orqali ta’qib etish yoki ilmiy tilda aytadigan bo‘lsak, grifing holatlari ko‘p kuzatilmoqda. Bu kabi tarmoq bezoriligining eng birinchi qurbonlari aynan yoshlar, xususan, o‘smirlar hisoblanadi. Sababi bu yoshda bolalar tabiatan ochiq bo‘ladi hamda dunyoga faqat ijobiy nuqtai nazar bilan qaraydi. Ular o‘zlari erishgan yutuqlari bilan o‘rtoqlashishni, o‘z fikrlarini birovlarga bayon etishni, g‘oyalari bilan bo‘lishishni xohlaydi. O‘smirlar o‘ta ishonuvchan, kompyuter o‘yinlariga qobiliyatli, buyruqlarni osonlikcha bajaradigan bo‘lishib, atrofidagilar bilan ko‘proq muloqotda bo‘lib yangidan-yangi fikr g‘oyalarni o‘rtaga tashlaydi va ularni amalda qo‘llashga intilishadi. Biroq bu borada ularga xayotiy tajriba yetishmaydi. Shuning uchun ham ular saytlarda qidiruvni amalga oshirayotganda axborotni qabul qilishda yoki elektron pochta manzilidan foydalanayotganda kattalar yordamiga muhtoj. Chunki bir qarashda beozor ko‘ringan ijtimoiy tarmoq orqali kechadigan suhbatlar tafakkuri endi shakllanayotgan o‘quvchilarni oxir-oqibat jinoyatgacha yetaklab borayotgani xayotiy haqiqat.

XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib, dunyoda global informatsion maydonning yaratilishiga sabab bo‘lgan inqilob sodir bo‘ldi. Natijada informatsion-kommunikativ kompleks dunyo xo‘jaligi yalpi mahsulotining anchagina foizini ta’minlovchi asosiy tarkibiy qismga aylandi. Internet tarmog‘i imkoniyatlari kengayib borayotgan hozirgi davrda o‘quvchi-yoshlarimizning ma’naviy madaniyatini shakllantirishda ko‘makchi kompyuterli tizim imkoniyatlaridan keng foydalanish zarur.

Ko‘makchi kompyuterli tizim o‘quvchilarning ma’naviy madaniyatini shakllantirishda quyidagi imkoniyatlarga ega:

1) ijodiy ta’limiy muhit yaratiladi;

2) o‘quvchi sifatli va ishonchli axborot materiallari bilan ta’minlanadi;

3) tarbiyaviy ishlar jarayonida ham axborot texnologiya-laridan keng foydalanish imkoniyati yaratiladi;

4) o‘quvchilarning mustaqil o‘qib-o‘rganishlari uchun zaruriy shart-sharoit yaratadi.

O‘quvchi-yoshlarning ma’naviy madaniyatini shakllantirishga doir ko‘makchi kompyuterli tizim uchun quyidagi ko‘rinishdagi ma’lumotlar bazalari yaratilishi maqsadga muvofiq:

1) ma’naviy madaniyatga tajribani o‘zlashtirish;

2) ma’naviy ongni shakllantirish; 3) ma’naviy faoliyatga doir; 4) yuksak ma’naviy jasorat namunalari;

5) ma’naviy qadriyatlarni interiorizatsiyalashga oid.

Yuqorida qayd etilgan ma’lumotlar bazasi orqali axborotli boshqaruv bloki tuziladi va uning tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

1) axboriy ta’minot (axborotlar banki, ma’lumotlar bazasi);

2) multimediali materiallar (videoroliklar, slayd-shoular).

Ko‘makchi kompyuterli tizimning eng asosiy xususiyatlaridan biri o‘quvchi-yoshlarga ma’naviy madaniyat bilan bog‘liq ma’lumotlarni uzatishdan tortib, ular tomonidan mazkur axborotlarning qanchalik o‘zlashtirilishini aniqlashgacha imkon beradi.

Tadqiqotchi Sh. Kamolovaning fikricha, ko‘makchi kompyuterli tizimning quyidagi olti bosqichdan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiqdir:

1) boshlang‘ich;
2) asoslovchi;
3) shakllantiruvchi;
4) tasdiqlovchi;
5) yakunlovchi;
6) natijaviy.

Bunday algoritmik ketma-ketlik o‘quvchi-yoshlarning ma’lumotlarni bilimlarni tarkib toptirish andozasi idrok etish, anglash, bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko‘nikma va malakalar hosil qilish asosida o‘zlashtirishlariga imkon beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotgan ayni paytda o‘quvchi-yoshlarda ma’naviy madaniyatni shakllantirishda virtual ekskursiya muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Virtual ekskursiya xilma-xil axborot manbalaridan foydalangan holda o‘quvchilarda ma’naviy madaniyatni shakllantirish jarayonida ularning o‘zaro birgalikdagi harakatga tayyorlashga yo‘naltirilgan pedagogik vositani o‘zida aks ettiradi.

An'anaviy ekskursiyalardan farqli ravishda virtual ekskursiyalar axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, maxsus jihozlangan o‘quv xonalarida o‘tkaziladi. Virtual ekskursiyani tashkil etishga doir mashg‘ulot bir nechta bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqichda o‘quvchilar bilan hamkorlikda ularning qiziqishlarini hisobga olgan holda, ekskursiyaning maqsadi aniqlanadi va ob'ektlari belgilab olinadi.

Ikkinchi bosqichda o‘quvchilar internet tarmog‘i orqali yuksak ma’naviy jasorat ko‘rsatgan shaxslar to‘g‘risidagi axborotlarni izlashadi, ularni o‘rganib, tahlil etish asosida mazkur mavzuda tayyorlanadigan ma’ruzaning rejasini tuzishadi. So‘ngra ko‘rgazmali materiallar asosida taqdimot yaratishadi. O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘lingan holda har biri o‘zi tayyorlagan ma’ruzaga tuzatish va o‘zgartirishlar kiritish maqsadida sinov tariqasidagi taqdimotlarni o‘tkazishadi. So‘ngra taklif etilgan o‘quvchi-ekskursantlar bilan birga virtual ekskursiyani amalga oshirishadi. Ekskursiyaga jalb etilgan o‘quvchilar tomonidan berilgan savollarga javob berishadi.

Yakuniy bosqichda guruh murabbiyi tomonidan taqdim etilgan mezonlar asosida o‘quvchilarning taqdimotlari muhokama etiladi va baholanadi.

Umuman olganda, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o‘quvchi-yoshlarning ma’naviy madaniyatini shakllantirishda keng imkoniyatlarga ega bo‘lib, shaxs rivojining motivatsion, kognitiv, faoliyatli va qadriyatli sohalarini uzviy ravishda o‘z ichiga qamrab olishi bilan alohida ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib shuni aytadigan bo‘lsak, jamiyatdagi har bir ijtimoiy kuch yoki aholi qatlamlari o‘z manfaat va maqsad-intilishlarini ifoda etuvchi g‘oyalar tizimini yaratgach, boshqa guruhlarni ham o‘z g‘oyalari ta’siriga tortishga harakat qiladi. G‘oyalar adolatli va haqqoniy bo‘lib, ko‘pchilikning talab-ehtiyojlariga mos kelsa, bu sohadagi tarbiya vositalari ta’sirchan, tarbiyachilar esa faol va fidoyi bo‘lsa, ko‘zlangan maqsadga erishiladi.

Aslida shaxs tarbiyasining muhim yo‘nalishi – bu g‘oyaviy tarbiyadir. Bu inson ongi va tushunchalari tizimida hayot haqidagi falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, axloqiy, badiiy, kasbiy qarashlarni maqsadli shakllantirish jarayonidir. Har qanday tarbiya jarayoni oxir-oqibat o‘z maqsad va mohiyatiga ko‘ra g‘oyaviy tarbiyadir. Chunki oilani olamizmi, maktabgacha ta’lim muassasasi, mahalla, maktab, kollej, litsey, universitet yoki akademiyani olamizmi – hammasida beriladigan ta’lim-tarbiya jarayonlari o‘quvchi-talaba va tinglovchilar dunyoqarashini kengaytirish, ularning ongini ilmiy asoslangan bilimlar bilan boyitish hamda jamiyat uchun, uning ravnaqi uchun kerak bo‘lgan sifatlarni kamol toptirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bu ishlar bolaning dunyo haqidagi, olamning rivojlanish qonuniyatlari, insoniy munosabatlar borasidagi o‘ziga xosliklar, axloq tamoyillari, go‘zallik haqidagi tushunchalarini kengaytirishga xizmat qiladi. Bu tom ma’noda mafkuraviy tarbiyaning asosiy poydevoridir.

Hozirgi vaqtda g‘oyaviy kurash va mafkuraviy tahdidlar o‘sib bormoqda. Bu holatda milliy mafkuraviy xavfsizlikka qarshi tazyiqning avj olishi nafaqat yuzaga kelayotgan tahdidlarni anglash, balki ularning oldini olish uchun amaliy faoliyatlarni kuchaytirishni ham taqozo etadi. Bu borada, ayniqsa mafkuraviy immunitetni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Paxrutdinov Sh.I. Barqaror taraqqiyot va rahbar mas'uliyati. – T.: Akademiya 2011
2. Umarova N.T. Globallashuv sharoitida axborot xurujlariga qarshi kurash. Akademiya. – T.: 2005
3. Eshbekov T. Mafkura maydonida axborot psixologik xavfsizlik. O‘zMU, T., 2011
4. Paxturdinov Sh.I. Taraqqiyotda muhim yo‘nalish. “Jamiyat” gazetasi 8fevral 2013
5. Inoyatov U., Xodjaev B. Umumta'limiy kompetensiyalarni loyihalashtirishning konseptual asoslari. –T.: Xalq ta'limi jurnali. 2016. №2. 15-b.
6. Karimov B. Globallashuv sharoitidagi mafkuraviy tahdidlar xavfining ortib borishida internet tarmog‘ining o‘rni. – T., 2013.
7. Karimov I. Noosfera: Geosiyosat va mafkura. – T.: Fan, 2007. 162-163-b.
8. Kuchukbaev F.M., Abduazimova D.F., Djuraev R.X., Divanova M.S., Inoyatova M.E. “O‘quvchi shaxsiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi internet saytlari va teleko‘rsatuvlarning ularda salbiy his-tuyg‘ularni vujudga keltirishning oldini olish bo‘yicha profilaktik korreksion dastur”. – Toshkent, 2016.